



**TIBBIY DISKURSDA GENDERGA XOS TIL VOSITALARI VA
DIAGNOSTIK YONDASHUVLAR**

Pulatova Dilafruz Toxirjonovna

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti

O'zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrası o'qituvchisi

e-mail: dilafruzpulatova0913@gmail.com

Annotatsiya : Ushbu maqolada tibbiy diskursda genderga xos til vositalari va diagnostik yondashuvlar tahlil etiladi. Shuningdek , tibbiy diskursda gender masalasi nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy adolat, sog'liqni saqlashdagi tenglik masalalariga ham daxldordirligi yoritiladi.


Kalit so'zlar: tibbiy diskurs, diagnostika, gender, shifokor, bemor

Annotation: This article analyzes gender-specific linguistic devices and diagnostic approaches in medical discourse. It also highlights how gender in medical discourse is not only linguistic, but also related to issues of social justice and equity health care.

Keywords: medical discourse, diagnosis, gender, doctor, patient.

Diskurs – bu til vositasi orqali amalga oshiriladigan muloqot jarayoni bo'lib, u orqali bilim, g'oya va ideologiyalar shakllanadi. Diskurs tushunchasi, lotincha discursus (muhokama, suhbat) so'zidan kelib chiqqan holda, nafaqat gapirish yoki yozish jarayonini, balki u orqali shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar, ideologik me'yorlar va madaniy kontekstlarni ham o'z ichiga oladi.

Tibbiy diskurs — bu tibbiy bilim va tajribani til orqali ifodalashning ijtimoiy va kommunikativ shakli bo'lib, uning markazida inson hayoti, sog'ligi va unga oid bahslar turadi. Tibbiy diskurs o'tgan asrning 60-70-yillarida AQSH va Yevropada fanning boshqa antropologik sohalari qatorida o'rganila boshlandi. G'arb tilshunosligida tibbiy diskurni tahlil qilishning ikkita yondashuvini ajratish mumkin. Birinchidan, AQSHda sociolinguistika nuqtai nazaridan rivojlanayotgan klinik suhbatlarni tahlil qilish, tadqiqotchilar bu yondashuvni mikroanalitik deb ta'riflaydilar, ikkinchidan, Yevropada M.Fuko asarlarida ko'rsatilgan falsafiy fanlar yo'nalishi bilan bog'liq diskursiv tadqiqotlar. Ularda nutq shifokorning vakolatlarini tasdiqlash va saqlash vositasi, shuningdek, manipulyasiya vositasi sifatida tahlil qilinadi.





So'nggi yillarda lingvistikada tibbiy diskursni gender nuqtai nazaridan o'rganishga qiziqish ortib bormoqda, chunki sog'liqni saqlash tizimida ham erkaklar, ham ayollar o'zlariga xos til va muloqot uslubiga ega. Bu esa nafaqat lingvistik, balki diagnostik va psixologik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Gender tilshunoslik dastlab XX asr so'nggida g'arb tilshunoslik ilmida va keyinchalik sharqda o'rganila boshlandi. Til va gender munosabatlari murakkab va ko'p qirralidir. Tilning jinsiy farqlarini o'rganish ijtimoiy va madaniy kontekslarda erkaklar va ayollar o'rtasidagi muloqotning qanchalik farqlanishining tushunishga yordam beradi.

Zamonaviy tibbiy diskurs nafaqat kasalliklar va ularni davolash jarayonini, balki bemor-shifokor o'rtasidagi muloqotni ham o'z ichiga oladi. Bu muloqot jarayonida gender – ya'ni ayol va erkakning ijtimoiy va madaniy jihatdan shakllangan roli – muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy tibbiy diskursda gender yondashuvini tushunish uchun bir nechta muhim nazariy konsepsiyalar mavjud. Bu nazariyalar tibbiy muloqotda erkaklar ko'ra ko'proq ayollar ehtiyotkor va murosali til uslubidan foydalanishini asoslab beradi. Ayollar va erkaklar nafaqat kasallik simptomlarini turlicha ifodalaydilar, balki ularning tibbiy muassasalarga murojaat qilish uslubi, shifokor bilan suhbatdagi nutq madaniyati, tibbiy xizmatdan kutgan umidlari ham farqlidir.

Tibbiy kontekstdagi gender o'z ifodasini bir necha darajalarda namoyon qiladi:

a) Simptomlarni ifodalashdagi farqlar.

Ayollar ko'proq detal va his-tuyg'ular bilan boyitilgan, emotsional jihatdan rang-barang tilda shikoyat qilsa, erkaklar ko'proq qisqa, aniq va mantiqiy uslubda simptomlarini tasvirlaydi.

b) Shifokor-bemor muloqoti.

Shifokor-bemor muloqotida ham gender omili katta ahamiyatga ega. Ayol bemorlar ko'pincha ochiqchasiga so'z yuritishga moyil bo'lib, ko'proq savol beradilar. Erkaklar esa shifokorga nisbatan ko'proq ishonch bildirgan holda, kamroq savol bilan cheklanadilar. Agar shifokorning o'zi ham ayol bo'lsa, bemor bilan muloqot yanada yumshoq va hamdardona kechishi mumkin. Erkak shifokorlar esa rasmiyroq ohangda so'z yuritishga moyildirlar. Bu farqlar tibbiy xizmat sifatiga bevosita ta'sir qiladi.

Shifokorlarning erkak va ayol bemorlarga bo'lgan munosabati ko'pincha gender stereotiplari asosida shakllanadi. Ayol bemorlar ko'proq psixologik sabablarga tayanilgan tashxislar bilan yuzlashadi, shu sabab shikoyatlari ko'proq psixosomatik sabablar bilan bog'lanadi. Erkak bemorlarga esa jismoniy simptomlar asosida yondashiladi .





Gender lingvistik strategiyalarning tanlanishiga ham ta'sir qiladi. Ayollar tibbiy muloqotda ko'proq so'roq shakllaridan, e'tiroz ifodalovchi vositalardan foydalanadi, erkaklar esa buyruq yoki to'g'ridan-to'g'ri murojaat uslubini afzal ko'radi. Bu holat diskursda ierarxiyani aks ettiruvchi belgi sifatida namoyon bo'ladi. Diskurs nazariyasi nuqtai nazaridan, erkaklar ko'proq dominant nutq pozitsiyasida bo'ladi: ular shifokorga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qiladi, interaktiv nazoratni qo'lga oladi. Ayollar esa subordinatsiyalashgan diskurs strategiyasini tanlaydi: ko'proq savollar beradi, tasdiq kutadi, tavsiya so'raydi.

Shuningdek, ayollar tibbiy masalalarni ko'proq tanishlar bilan muhokama qilsa, erkaklar bunday suhbatdan ko'ra shifokorga bevosita murojaat qilishni afzal ko'radi. Shifokorning jinsi ham muloqot xarakteriga ta'sir qiladi. Ayol shifokorlar bemorlar bilan samimiy, hamdardona, yumshoq ohangda gaplashishga moyil bo'lsalar, erkak shifokorlar rasmiyroq, ob'ektiv va qisqaroq suhbatni afzal ko'radilar. Bu holat ayrim bemorlar uchun qulaylik, boshqalar uchun esa psixologik noqulaylik tug'dirishi mumkin. Ayniqsa, reproduktiv salomatlikka oid masalalarda bemorning va shifokorning jinsi muloqot sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Masalan :

-Shifokor erkak, bemor ayol bo'lsa, suhbat ko'pincha paternalistik (otalik pozitsiyasida) bo'ladi. Shifokor ko'proq "siz nima qilishingiz kerak", "siz tushunishingiz kerak" kabi direktiv ifodalarni ishlatadi.

-Ayol shifokorlar, aksincha, bemorning hissiy holatini ko'proq inobatga olib, interaktiv savollar masalan, "Siz qanday his qilyapsiz?" va tushunishga yo'naltirilgan til birikmalarini ko'proq ishlatadi

Ba'zi tibbiy holatlarda ayollar simptomlarini emotsional ifoda qilgani uchun ularning shikoyatlari "asossiz" deb baholanishi mumkin. Bu esa noto'g'ri tashxis qo'yilishiga olib keladi. Ba'zi simptomlar masalan, yurak xuruji ayollarda turlicha ifodalanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, yurak xuruji simptomlari ayollarda erkaklarnikidan farqli ko'rinishda ko'ngil aynishi, bel og'rig'i, charchoq orqali ham namoyon bo'ladi, ammo bu simptomlar tibbiy jihatdan past baholanadi. Natijada, ayollar yurak xurujidan o'lim holatida erkaklarga qaraganda yuqori xavf guruhiga kiradi.

Tibbiy kartalarda, epikrizlarda va boshqa yozma hujjatlarda ishlatiladigan til ham gender jihatidan tahlil etilishi lozim. Masalan, ayollar haqidagi yozuvlarda "asabiy", "emotsional", "tashvishga moyil" kabi subyektiv baholar ko'proq ishlatiladi. Bu holat bemorning psixologik holatini noto'g'ri talqin qilishga va tibbiy yondashuvda noto'g'ri



qarorlar qabul qilishga olib kelishi mumkin. Shu bois, tibbiy yozuvlarda gender neytral, aniq va faktlarga asoslangan tildan foydalanish muhimdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tibbiy diskursda gender masalasi ko'p qirrali va murakkab muammodir. Lingvistik farqlar, stereotiplar, psixologik yondashuvlar, shifokor va bemor muloqoti, tibbiy yozuvlar – bularning barchasi gender va tibbiyot o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Tibbiy amaliyotda gender tengligini ta'minlash nafaqat adolatli yondashuv, balki tibbiy xizmat sifatini oshirish, bemor qoniqishini ta'minlash va sog'liqni saqlash tizimida ijtimoiy adolatni qaror toptirish uchun ham zarurdir. Shuning uchun har bir tibbiy mutaxassis gender sezgirligini rivojlantirishi va ushbu jihatni amaliy faoliyatiga tatbiq qilishi muhimdir.

Shuningdek, tibbiy diskursda gender masalasi nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy adolat, sog'liqni saqlashdagi tenglik masalalariga ham daxldordir. Gender farqlari diagnostik qarorlar, muloqot sifati va bemorlarning sog'lig'iga bevosita ta'sir qiladi. Shunday ekan, tibbiyot xodimlari va lingvistlar bu farqlarni hisobga olib, genderga sezgir yondashuvni rivojlantirishlari zarur. Ayollar va erkaklar tilidan foydalanishdagi farqlar sog'liqni saqlash tizimida sezilarli tafovutlarga olib keladi. Shifokorlarning genderga nisbatan ogohliligi, nutqiy sezgirligi va tenglik prinsipiga asoslangan yondashuvi diagnostik sifat va terapevtik natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tibbiy tilshunoslikda genderni chuqur o'rganish — bu sog'liqni saqlashda adolatga erishish yo'lidagi muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Foucault, M. "The Archaeology of Knowledge" Pantheon. 1972
2. М. Н. Чернявская, Лингвистика текста. Лингвистика дискурса, Москва, 2013
3. Lazar, M. M. Feminist Critical Discourse Analysis. Palgrave Macmillan. 2015
4. Qobilov M.E. "Kasallik nomlariga oid leksemalarning lingvomadaniy, lingvokognitiv tadqiqi". Ekonomika i Sotsium, 2024
5. Soliyeva N.A. "Tibbiy matnlarda lingvistik xususiyatlar va nutq etiketi". Tibbiy tilshunoslik jurnali, 2022
6. Abdurahmanova N.N. "Diskurs tushunchasi va uning tadqiqi". Academic Research in Educational Sciences, 2021, vol. 2, №11

INTERNET SAYTLARI :

1. Google.uz
2. Wikipediya.uz
3. Ziyonet.uz

